

BUXORO XONLIGI VA ROSSIYA IMPERIYASI O'RTASIDAGI ALOQALARING MANBALARDA YORITILISHI

Kattabek Achilov Raxmankulovich

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro xonligining Rossiya imperiyasi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohada olib borgan diplomatik munosabatlarining manbalarda yoritilish darajasi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Shayboniylar, Ahmad Donish, Sibir, imtiyoz, boj, Ural, Volga, Astraxan, sartlar, kareta, desyatina, Ashtarkoniylar, Abulxayrxon, diplomatiya.*

Tarixdan ma'lumki har bir davlat taraqqiyoti tashqi diplomatik munosabatlar va savdo aloqalariga bog'liq. Shu o'rinda, XVI–XIX asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida hukm surgan Shayboniylar, Ashtarkoniylar va Mang'itlar sulolasi hukmdorlari tomonidan qo'shni davlatlar bilan savdo va diplomatik munosabatlar amalga oshirilgan.

Rossiya imperiyasi va Buxoro xonligi munosabatlari ishtirokchilarning memuar asarlarida O'rta Osiyo xalqlari tarixining ko'pgina tomonlarini yoritib beradigan qimmatbaho ma'lumotlar to'plangan bo'lishi bilan birga, ularda O'rta Osiyo bilan Rossiya o'tasidagi aloqalarga oid juda ajoyib va boy materiallar berilgan⁴².

XVI asrda Buxoro xonligi va Rossiya imperiyasi o'tasida olib borilgan savdo va elchilik aloqalarini o'rganishda Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asari muhim manba bo'lib hisoblanadi. Muallif o'z asarida XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bilan Rossiya o'tasidagi savdo munosabatlariga oid ayrim qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan. "Abdullanoma" asarida XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'tasidagi elhilik aloqalari haqida faqat Moskvaga Abdullaxon tomonidan yuborilgan elchilarining 1583-yilda qaytib kelganliklari va ularning Moskvadan tuyalarga juda ko'p o'q-dori, ov qushlari va boshqa matolar ortib keltirganliklari hikoya qilinadi. Mashhur rus tarixchisi S.V.Jukovskiy Buxoro elchilarining 1589-1595-yillarda ham Moskvaga borganliklarini qayd qilgan. Akademik V.V.Bartold bu elchilarining, asosan, ov ashyolari – miltik, qo'rg'oshin, o'q-dori va ov qushlari (shunqorlar) keltirish uchun yuborilganligini ta'kidlaydi⁴³.

"Abdullanoma" asarining ikkinchi qismida Rossiya va Buxoro o'tasidagi aloqalar haqida juda qisqa so'z yuritiladi. Asarda "Moskov tomonidan necha to'qqiz shunqor va

⁴² Муҳаммаджонов А.Р., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Т.: Фан, 1957. – 7-б.

⁴³ Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома ("Шарафномайи шоҳий"). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзайев таржимаси. Изоҳлар муаллифи: Б.Ахмедов. – Т.: Шарқ, 1999. – 11-б.

boshqa urush asboblari bilan elchi kelgani” nomli sarlavha mavjud bo‘lib, unda Moskvadan qaytib kelgan elchilar va ular olib kelgan narsalar haqida so‘z yuritiladi.⁴⁴

Yana bir tarixiy manba “Muntaxab at-tavorih” (“Saylangan tarixlar kitobi”) asaridir. Asar Muhammad Hakimxon ibn Mas’umxon to‘ra tomonidan yozilgan. Asar XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning o‘rtalarigacha O‘rta Osiyo davlatlari, jumladan, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi tarixini yoritishda birlamchi manbalardan hisoblanadi. Asarda o‘scha davrdagi Turkiya, Eron, Afg‘oniston va Rossiya tarixiga doir muhim ma'lumotlar va kuzatuvlar mavjud. Asarning V bobida Buxoroda hukmronlik qilgan ashtarxoniyalar va mang‘itlar sulolasi tarixi haqida so‘z yuritiladi. Sulolalarning tashqi aloqlari, jumladan, Rossiya va uning qator hududlari – Shamay, Omsk, Astraxan shaharlari haqida ham so‘z yuritiladi⁴⁵.

Rossiya tomonidan yuborilgan diplomatik missiya vakillari va elchilarning juda ko‘pchiligi O‘rta Osiyo hududida bir marta bo‘lishlariga qaramay, u yerda yashovchi xalqlarning urf-odati hamda ijtimoiy hayotiga qiziqishlari tufayli, har bir masalaga, shuningdek, tarixiy yodgorliklarga zo‘r diqqat bilan e’tibor berib, ularni mukammal o‘rganish hamda ular to‘g‘risida to‘plangan ma'lumotlarni to‘liq tasvir etish uchun intilishgan. Shunday qilib, bu asarlarning qiymati shundaki, ularda mualliflar shaxsan o‘zlari borib ko‘rgan mamlakatni va o‘zlari kuzatgan xalqni tasvir etadilar. Garchi Rossiya va Buxoro amirligi munosabatlari ishtirokchilarining asarlari O‘rta Osiyo xalqlari tarixini, jumladan, Buxoro xonligi va Rossiya o‘rtasidagi aloqalar tarixini o‘rganishda birinchi darajali manbalar hisoblansa ham, ularda keltirilgan ba’zi bir ma'lumotlarni, shuningdek mualliflarning ayrim masalalar ustida olib borgan mulohazalari hamda bergen fikrlarini tanqidiy o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Chunki Rossiya va Buxoro xonligi aloqalarida ishtirok etgan mutaxassislarning ko‘pchiligi rus davlat ma’muriyati kishilari bo‘lib, yozib qolgan o‘z asarlarida ilmiy maqsadlarni ilgari surgan bo‘lsalar ham, lekin asarlari o‘scha davr mustamlakachilik g‘oyasi bilan sugarilgandir⁴⁶.

Ahmad Donish tomonidan yozilgan yana bir asar “Risola yoxud mang‘itlar xonadoni sultanatining qisqacha tarixi”dir. Asar yurt hukmdorlarining jaholat va g‘aflat botqog‘iga botib ketishi, ma’uliyat va xushyorlikni yo‘qotishlari, umrini o‘tab bo‘lgan aqidalarga o‘ralashib yashashlari oqibatida mamlakat o‘z mustaqilligidan mahrum bo‘lishi tarixiga bag‘ishlanadi. Bizga ma'lumki, Ahmad Donish 1857-yilda Peterburgga safar qiladi. U bevosita Rossiya imperiyasida bo‘lganligi uchun ham Buxoro-Rossiya munosabatlari haqida ayrim ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Ahmad Donishga safar oldidan amir u yerdagi ichki vaziyat va ahvolni yaxshi o‘rganishni hamda bu haqida oliy dargohga yetkazish kerakligini uqtiradi. Amir bu vazifani o‘scha davrda Buxoro

⁴⁴ Хоғиз Таниш ал-Бухорий. Кўрсатилган асар. 117-б.

⁴⁵ Муҳаммадхакимхон тўра. Мунтакаб ат-таворих: (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) / форс-тожик тилидан тарж., муқаддима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 5-б.

⁴⁶ Муҳаммаджонов А.Р., Неъматов Т. Кўрсатилган асар. 9-б.

amirligi boshqa davlatlar haqidagi ma'lumotlarni sayyoohlar va savdogarlar orqali bilib olishi bilan izohlagan⁴⁷.

Rossiya-Buxoro munosabatlariga oid qimmatli ma'lumotlarni S.V. Jukovskiyning “Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие” (“Oxirgi uchyuz yillikda Rossiyaning Buxoro va Xiva bilan munosabatlari”) asarida ham uchratishimiz mumkin. Ushbu asarida S.V.Jukovskiy Rossiya davlati bilan O'rta Osiyo xonliklarining uch asr davomidagi (XVII–XIX asrlarda) munosabatlari tarixiga oid birinchi tizimli ma'lumotlarni bayon etgan. Kitob hujjatli materiallar – shartnomalar, bitimlar va memorandumlarning ilovalari bilan izohlangan xronologik jadval shaklida tuzilgan. Asar 1915-yilda Petrogradda (Sankt-Peterburg) rus tilida nashr etilgan. Jami 225-bet⁴⁸.

Buxoro xonligining Rossiya bilan siyosiy munosabatlari tarixini o'rganishda 1879-yili Peterburgda nashr etilgan “Сборник князя Хилкова” (“Knyaz Xilkov to'plami”) asari muhim o'rin tutadi. Asarda 1589–1783-yillar oralig'ida ikkala davlat o'rtaasida o'rnatilgan elchilik va diplomatik aloqalar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ikkala davlat o'rtaasidagi elchilik va diplomatik aloqalarni yorituvchi manbalar XVI asarda shakllangan va bu kabi manbalar kam o'rganilgan. Shuning uchun ham ushbu to'plam Buxoro-Rossiya munosabatlarini yoritishda asosiy manba hisoblanadi⁴⁹.

Rus olimi N. Veselovskiyning “Ivan Danilovich Xoxlov” asarida Buxoro xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtaasidagi diplomatik aloqalarga oid ayrim ma'lumotlar mavjud. Kitob 1891-yilda Sankt-Peterburgda rus tilida chiqarilgan. Unda elchi I.Xoxlovnning Eron va Buxoroga qilgan safari haqida bayon etiladi. Imomqulixon rus hukmdori Mixail Romanov huzuriga Odambiy boshchiligidagi elchilar missiyasini yuborgan. Imomqulixon o'z elchilari orqali ikkala davlat o'rtaasidagi aloqalarni mustahkamlash hamda o'zaro savdo aloqalarini kengaytirish barobarida rus hukmdoridan Buxoroga elchi yuborishini ham so'raydi. Bunga javoban 1620-yilda Mixail Romanov elchi Ivan Danilovich Xoxlovni yuboradi. Kitobda Xoxlov elchiligi haqida rus tarixshunosligi nuqtai nazaridan yondashilgan. Yana Xoxlov tomonidan olib borilgan josuslik ishlari oqlanadi. Asarda I.Xoxlovnning Eron hukmdori shoh Abbos bilan olib borgan muzokaralari haqida ham bayon etilgan. Shuningdek, Buxoroga qilingan elchilik haqida ham juda qimmatli ma'lumotlar bor⁵⁰.

Bizga ma'lumki, Buxoro xoni Abulfayzzon davrida Rossiya va Buxoro munosabatlarida o'zgarish yuz beradi. Bunga o'sha davrda hukmronlik qilgan va rus davlatini imperiyaga aylantirgan hukmdor Pyotr I ning O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan tazyiq o'tkazish siyosati sabab bo'lgan. Pyotr I Rossiya davlati manfaati yo'lida Buxoro

⁴⁷ Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд мағнитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014. – 6-б.

⁴⁸ Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – СПб. 1909. – С. 225

⁴⁹ Хилков Г. Сборник князя Хилкова. – СПб. 1879. С. 631

⁵⁰ Веселовского Н.. Иван Данилович Хохлов. (Русский посланник в Персию и Бухару в XVII веке). – СПб. 1891. – С. 28

xonligiga Florio Beneveni boshchiligidagi elchilar missiyasini yuboradi. Bu jarayonlar M.Vays boshchiligidagi guruh tahriri ostida 1896-yilda nashr etilgan “Pyotr I ning sharqqa elchiligi: Florio Benevenining Eron va Buxoroga elchilik missiyasi” nomli kitobda yoritiladi. Undagi ma'lumotlarga ko'ra, Abulfayzxon Rossiyaga elchi orqali maktub yuboradi va unda Buxoroga Rossiya tomonidan elchi yuborilishini ham so'raydi. Bunga javoban Rossiya tomonidan 1721-yili Florio Beneveni elchi qilib jo'natiladi. Rossiya elchisiga bir qancha muhim ishlar yuklatilgan. Jumladan, O'rta Osiyoga olib boruvchi suv va quruqlik yo'llarini o'rganish, bu mintaqada rus savdosini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash, Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish, xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish, xonlik hududida qancha oltin konlari borligini aniqlash va ularni maxsus xaritaga tushirish, davlatdagi qal'alar va qo'shining ahvolini o'rganish hamda xonlikning ichki ahvoli bilan bir qatorda Xiva, Eron va Usmonli davlati (Turkiya) bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish va hakozo. Buxoroda 3,5 yil turgan F.Beneveni o'z oldiga qo'yilgan vazifalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar toplashga erishgan hamda 1725-yilda Peterburgga qaytib ketgan. Kitobning qimmatli jihat shuki, unda Florio Benevenining Yekaterina I ga yuborgan xati ham ilova qilingan. Bundan tashqari, Beneveni elchiligining vazifalari haqidagi yo'riqnomalar ham keltirib o'tiladi⁵¹.

1841-yilda Buxoro amirligiga yuborilgan diplomatik missiya tarkibida bo'lgan N.V.Xanikov o'zining safari haqida «Описание Бухарского ханства» nomli asar yozib qoldirgan. Bu 8 bobdan iborat bu asar Peterburgda 1843-yili nashr etilgan. Asar oxirida Buxoro amirligining xaritasi, Buxoro va Samarcand shaharlarining rejasi berilgan. Bu xarita va rejalar diplomatik missiya tarkibida qatnashgan topograf Yakovlev tomonidan tuzilgan. Xanikov asari XIX asrning 30–40-yillaridagi Buxoro va Rossiya munosabatlarini o'rganishda birinchi darajali manba hisoblanadi⁵².

Xulosa qilib aytganda, o'sha davrda yaratilgan bir necha tarixiy manbalarda Buxoro-Rossiya munosabatlariga oid muhim voqealar yoritilgan. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, XVI asrdan to XIX asrning o'talariga qadar Buxoro xonligi (keyinchalik Buxoro amirligi) Rossiya imperiyasi bilan savdo-iqtisodiy va diplomatik aloqalar olib borgan. Ikkala davlat o'tasidagi munosabatlar, dastlab, mamlakatlar o'tasida savdo aloqalari olib borish, o'zaro iqtisodiy munosabatlar o'rnatish bilan cheklangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд майфитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2014.

⁵¹ Посланник Петра I на Востоке: посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. – М.: 1986. – С. 162

⁵² Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб. 1843. – С. 300

2. Веселовского Н.. Иван Данилович Хохлов. (Русский посланник в Персию и Бухару в XVII веке). – СПб. 1891.
3. Жуковский С. В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – СПб. 1909.
4. Мұхаммаджонов А.Р., Неъматов Т. Бухоро ва Ҳиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Т.: Фан, 1957.
5. Мұхаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих: (Ҳўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) / форс-тожик тилидан тарж., муқаддима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Т.: Янги аср авлоди, 2010.
6. Посланник Петра I на Востоке: посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. – М.: 1986.
7. Ҳаныков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб. 1843.
8. Ҳилков Г. Сборник князя Хилкова. – СПб. 1879.
9. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома (“Шарафномайи шоҳий”). Биринчи китоб; Форс тилидан С.Мирзайев таржимаси. Изоҳлар муаллифи: Б.Аҳмедов. – Т.: Шарқ, 1999.